



TARAKKIYAT TA'DQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

ERGASHEVA Ra'no Muzaffarbek qizi

*Namangan davlat universiteti
talabasi*

O'ZBEKISTONDA KULOLCHILIK SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI

Kulolchilik – bu tuproqdan idishlar, haykallar va boshqa san'at asarlarini tayyorlash san'ati. U ko'plab madaniyatlarda qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan. Bu soha nafaqat amaliy jihatdan, balki san'at sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Har bir madaniyat o'zining unikal uslublari va an'alariga ega bo'lgan kulolchilikni rivojlantirgan.

Kulolchilik mahsulotlari tayyorlanishda loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'lgan. Kulolchilikda asosiy qurol kulolchilik charxi, usta unda idishlar tayyorlangan va ularga shakl berilgan. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonida qizdirilgan. Idishlarning turlariga ko'ra, xumdonlar ham turlicha bo'lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so'ng yana bir bor xumdonida qizdirilgan. Odatda, kulollar ma'lum idishlar ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi.

Neolit davrida kulolchilik o'zining rivojlanish bosqichida muhim rol o'ynagan. Bu davrda odamlar tuproqdan foydalanishni o'rganib, keramika ishlab chiqarishni boshladilar. Kulolchilikning asosiy maqsadi, oziq-ovqat saqlash, suv yig'ish va turli maqsadlarda foydalanish uchun idishlar tayyorlash edi. Neolit kulolchiligi asosan qo'lda ishlab chiqarilgan bo'lib, o'ziga xos dekorativ uslublarga ega edi. Odamlar oddiy, ammo amaliy idishlardan tortib, murakkab ornamentlarga ega buyumlargacha bo'lgan turli xil keramika buyumlarini yarata boshladilar. O'sha davrdagi kulolchilik ijtimoiy hayot, iqtisodiy faoliyat va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu davrda kulolchilikning o'sishi odamlar orasida savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ham yordam berdi.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu soha bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qilgan. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'alar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega.

Neolit davrida idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanib, yerga sanchib qo'yilgan. Bu davrda esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj topgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlangan.

VIII – XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab bergan. O'sha davrda bu joylarning madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlangan [1, B.8].

Insoniyat tarixida kulolchilikning tutgan o'rniga qisqacha ta'rif bergan holda, mamlakatda shakllangan kulolchilik maktablari va an'alarini tarixiy manbalar tahlili orqali o'rganish va yoritib berishdan iborat;

- Kulolchilik san'ati tarixi, an'analari va antik davrda kulolchilikning vujudga kelishi tarixini o'rganish;

- O'zbekistonda kulolchilikning rivojlanish tarixi bosqichlarining to'plagan manbalar ma'lumotlari asosida tahlil qilish;

- Respublikada shakllangan kulolchilik maktablari va ularning an'alarini o'rganish.

Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o'zgarishlar kiritgan. O'tmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmagan [2, B.768].

Har bir hunarni o'ziga xos mashaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'lgan. Qadimdan otobobolar badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Odamlar asrlar davomida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotni ayniqsa, sifatiga, badiiylicha foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda.

Loy guldon – sershirali loy. Bu loydan juda nozik guldonlar yasalgan. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy yoki oq loy – qoramtir loyga oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlangan. Bu loydan kosa, piyola, lagan va boshqa narsalar tayyorlangan.

Kesma koshin loy – o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlangan. Undan har xil mozaikali koshinlar qilingan. Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo'shib, undan har xil koshinlar yasalgan.

Kosagor loy – patloy yoki tovoq loy deb yuritilgan. Gzu loyi soz tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlangan. Undan yassi yuzali idishlar yasalgan. Ko'zagor loy 60-79 % plastic yog'li loy va 30-40 % soz tuproqdan iborat bo'ladi [3, B.43].

Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalanadi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chizilgan, unga sir berilib oftobda quritilib, pechda qizdirilgan. Usta sirni o'zi tayyorlagan. Qoraqumga borib chog'on yoki kirchop yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib, maydalangan shisha uniga qo'shgan. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shilgan. Uni biror idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlangan bodiyaga surtilgan. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlangan. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartirgan. O'sha qum poroshogini suv bilan aralashtirib, sovitilgan hamda tozalangan. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlangan, so'ngra bodiya sirtiga surkalgan.

Kulolchilikning tarixiy rivojlanishidagi keyingi bosqichi XIV-XV asrlarga to'g'ri kelgan. Turli shakl va turli xildagi idishlar, yopiq yumaloq idishlar gidroksid bilan bo'yalgan. Shaffof rangsiz sir o'rniga ko'k shaffof ranglar ishlatila boshlangan. Feruza rangli va qora sirli rasm bilan mahsulotlarning ta'siri oshirilgan.

Farg'onada kulolchilikning an'anaviy badiiy usullari qayta tiklangan, ishqorli sir tayyorlash yo'lga qo'yilgan. M.Ismoilov, I.Komilov, U.Ashurov, U.Qosimov, Sh.Yusupova, A.Vazirov, M.Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosa, don maxsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatdan ham rang-barangdir [2, B.768].

Sir – shisha toifadagi vosita yoki qatlamga ega murakkab kimyoviy birikma. Odatda turli moddalar oksidlari bilan kremniy oksidi aralashmasidan hosil bo'lgan. Sirlangan bo'yoq ostida sir va bo'yoqlarni tayyorlash tegishli bilim va tajribani talab qilgan. Bo'yoqlarni maydalash va aralashtirish uchun maxsus asboblari ishlatilgan, eng yaxshi elak, masalan, ipak, saralash uchun sirlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishda alohida o'rin tutadi. Usta-kulollar nafaqat Sharqning issiq haroratini, ba'zan turli xil bo'lgan ranglarni, sirni yoqish haroratini ham hisobga olish kerak edi. Hatto kulolning kichik noto'g'ri hisoblashi ham sirga, bo'yoqlarga zarar yetkazishi mumkin.

Sopol idishlar tayyorlashda dastlab silliq yuzali yoki bo'rtma gulli buyumlar rangli sir bilan qoplangan, keyinroq rasm paydo bo'lgan, rangi va bo'yama naqsh bilan boyitilgan, kulollarning estetik didi mahoratini ifodalovchi nafis ishlangan rasm va yozuv shakli ishlab chiqilgan.

Kulolchilikda eng muhim jarayonlardan biri bu shakl berishdir. Qo‘l bilan shakl berish va qoliplashda muhim yutuqlar qayd etilgan. Bu shakllarning xilma-xilligi va tomirlarning juda tekis devorlari bilan ko‘rsatilgan. Kulol doirasini shakllantirish uchun qurilma-charx mavjud.

Qadim zamonlarda keramik idishlar hunarmandchilikni rivojlantirishda, birinchi navbatda, shakl berish va angoblash texnikasi qo‘llanilgan. Shuningdek, xom ashyoni qayta ishlash, bezatish, qovurish texnologiyasida muayyan yutuqlarga erishilgan. Keramika mahsulotlarining assortimenti sezilarli darajada oshib bormoqda, ularning soni ortib ko‘payib, shakllar yanada xilma-xillashmoqda. Kulolchilik mahsulotlari nozik devorlarga ega. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, qadimgi davrdagi O‘rta Osiyoning barcha idishlari juda tez va dumaloq aylana bo‘ylab shakllar chiqarilgan bo‘lib, u nozik tekis devorlar va profillarni yaratishga imkon bergan.

Keramika mahsulotlari bo‘rtirma tayoqchalari, nozik gravitatsiya, shtamplar bilan bezatilgan. O‘yilgan bezak yog‘och yoki suyak nuqtasi bilan olingan. Qabartma shaklda eng oddiy muhrlangan naqsh, ichi bo‘sh tayoq bilan qo‘llanilgan.

Angob – eng yaxshi loy massasi, ko‘pincha ranglardan tayyorlanadi. Tayyor idish yuzasiga qo‘llaniladigan qizil yoki yengil yonib turgan loy. Ular bilan ishlab chiqarilgan idishlarning katta qismini qoplagan. Angob bilan qoplangan idishni olovga qo‘yilgandan so‘ng, yorqin qizil, qizil-jigarrang, to‘q sariq-qizil, zich tekis yuzaga ega bo‘lgan. Toplangandan keyin idishdagi bo‘yalgan loy qatlami zich, chiroyli, juda silliq ko‘rinishga kelgan, devorlarni yanada chidamli qilgan [4, B.29].

Kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning yakuniy jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. O‘rta Osiyoning qadimiy kulolchilik pechlari kulollar tomonidan o‘z tajribasi bo‘lgan bir qator muhim issiqlik texnologiyalari va qonuniyatlarini hisobga olgan holda qurilgan. Qovurish muhim haroratda amalga oshirilgan, bu tayyor mahsulotning rangi va sifati, qovurishning tekisligi, angobning yorqin rangi bilan ajralib turgan.

XIX asrda O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘lgan. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o‘ziga xos usullarini vujudga keltirganlar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliigi, chiroyliliigi, naqshlarining nafis va ta’sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930-yilda Toshkent eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochilgan. 1932-yilda Toshkentda o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u yerda xalq amaliy san’ati ustalari shu qatori kulollarni tayyorlaydigan kurs tashkil etilgan. Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o‘rgatganlar. Bular Rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, G‘ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliyev, Shahrisabzlik Rustam Egamberdiyev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi [3,B.38].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har bir hunarning o‘ziga yarasha siri, mashaqqati bor. Qunt qilib o‘rgangan odam o‘z sohasining mutaxassisi bo‘ladi. Masalan, hunarmandlar tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me’morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyliigi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ustalar yuqori sifatli g‘oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o‘tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar.

Kulolchilik sohasining rivojlanishi tarixiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu san’at asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib, milliy meros sifatida saqlanib kelmoqda. Rivojlanish jarayonida kulolchilik texnologiyalari va uslublari o‘zgarib, innovatsion yondashuvlar bilan boyidi. Hozirgi kunda zamonaviy kulolchilik an’analarining saqlanishi bilan birga, yangi dizayn va materiallar yordamida rivojlanmoqda. Bunday holatlarda davlat tomonidan kulolchilik sohasining rivojlanishi, uning madaniyati va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqarishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buvayeva V. Badiiy kulolchilikda oshyolarda ishlash. – Namangan. “Usmon Nosir media”. 2022. – 113 b.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2000. – 900 b.
3. Tursunova V. Amaliy san’at turlari. – Buxoro. “Buxoro”. 2022. – 127 b.
4. Jamolova D. O‘rta Osiyo ornamenti va tasviriy san’at tarixi. – Buxoro. “Durdona”. 2021. – 121 b.